

**NAVOIY VILOYATI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI**  
**NAVOIY SHXTMFMTEB**

**Navoiy shahar 11-DIUM**

**Tarix fani o'qituvchisi**

**Norbo'tayev Sardorning**

**“DARS MUQADDAS” shiori ostida**

**“QO'QON XONLIGINING TASHKIL TOPISHI”**

**mavzusidagi bir soatlik**

***OCHIQ DARS ISHLANMASI***



***Navoiy-2015***

**Fan:** O'zbekiston tarixi

**Mavzu:** Qo'qon xonligining tashkil topishi

### DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

<b>Darsning maqsadi</b>	O'quvchilarga Qo'qon xonligining tashkil topishi haqida bilim berish
<b>Darsning vazifasi</b>	O'quvchilarni mavzuga qiziqtirish va fanga bo'lgan qiziqishini oshirish
<b>Darsning mazmuni</b>	Qo'qon xonligining tashkil topishi. Shohruxbiy – xonlik asoschisi. Abdurahimbiy. Erdonabiy. Norbo'tabiy. Olimbek. Davlat tuzumi va boshqaruvi.
<b>Darsni tashkil etish texnologiyasi</b>	<b>Uslub:</b> Ko'rgazmali- amaliy <b>Shakl:</b> Kichchik guruhlarda va individual tartibda ishlash <b>Usul:</b> Noan'anaviy <b>Nazorat:</b> Yozma va og'zaki <b>Vosita:</b> Darslik, xarita, o'quv qurollari va AKT <b>Baholash:</b> Rag'batlantirish va besh ballik tizim asosida
<b>Kutilayotgan natija</b>	<b>O'qituvchi:</b> Bir darsda diyarli barcha o'quvchilarni baholaydi. Ko'p ma'lumot berish orqali bilim beradi. O'quvchilarning bilim ko'nikma va malakasini oshiradi. <b>O'quvchi:</b> O'z fikriga ega bo'ladi. Ko'p ma'lumot orqali bilim oladi. Nutq qobiliyati va dunyoqarashi kengayib, erkin fikrlashga o'rganadi. Guruhlarda ishlash malakasi oshadi.
<b>Kelgusi rejalar</b>	<b>O'qituvchi:</b> Yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganadi. O'z darsini o'zi tahlil qiladi. Yangi qo'shimcha adabiyotlarni o'rganadi. Har tomonlama o'quvchilarga o'rnak va ibrat bo'lishga harakat qiladi. <b>O'quvchi:</b> O'z ustida ishlaydi va qo'shimcha adabiyotlarni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini mulohaza qilib yakuniy xulosaga kelishga o'rganadi.

#### **Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** O'quvchilarga Qo'qon xonligining tashkil topishi, Shohruxbiy – xonlik asoschisi va Davlat tuzumi boshqaruvi haqida bilim berish.

**Tarbiyaviy:** O'quvchilarga erk, mustaqillik eng oliy baxt ekanligini va ilm-marifat har qanday jaholatdan ustun ekanligini tushuntirish orqali, o'quvchilarda Vatanparvarlik tuyg'ularini va ma'naviy tafakkurini oshirish.

**Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarga Qo'qon xonligining tashkil topishi haqida bilim berish orqali, ularda nutq qobiliyati va dunyo qarashini kengaytirish hamda erkin fikrlashga undash.

**Dars tipi:** Yangi bilim beruvchi

**Dars uslubi:** Ko'rgazmali-amaliy

**Dars usuli:** Noan'anaviy (savol-javoblar, didaktik o'yinlar, "Aqliy hujum", "Topqirlik", "Klaster", "Mehrjon", "Sirli so'z", "Shatranj")

**Dars didaktikasi:**

- a) **Jihozi:** Darslik, Dunyoning siyosiy xaritasi, o'quv qurollari, A-4 formatdagi qog'ozlar va bukletlar.
- b) **Texnik vosita:** Kompyuter, videoproyektor va ekran

#### DARSNING BLOK SXEMASI


No	Darsning borishi	Vaqt (daqiqa)
1	Tashkiliy qism	3
2	O'tilgan darsni interfaol usullardan foydalangan holda takrorlash	9
3	Yangi mavzuni tushuntirish	15
4	Yangi mavzuni interfaol usullardan foydalangan holda mustahkamlash	15
5	O'quvchilarni baholash	2
6	Uyga vazifa berish	1

**Dars shiori:** "TARIXIY XOTIRASIZ KELAJAK YO'Q!"


**Darsning borishi:**

**Tashkiliy qism (3 daqiqa).**

- a) **Psixologik iqlim yaratish.** Salomlashish, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini baholash, davomat va ob-havoni aniqlash.
- b) **Dars mavzusi va maqsadini e'lon qilish.**
- c) **Darsda o'zlashtirilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarni e'lon qilish**
- d) **O'quvchilarni guruhlariga ajratib olish.** Guruhlarga "Shohruxbiy", "Norbo'tabiy" va "Olimbek" nomlarini berish
- e) **Darsning oltin qoidalarini yaratish.**
1. O'zaro hurmat
  2. Hamkorlik.
  3. Tinglash
  4. Topqirlik
  5. Zukkolik
  6. Va H.K
- f) **Baholash mezonlari.** Ingiliz tili bilan bog'langan holda "GOLD", "SILVER", "BRONZE" so'zlari yozilgan shakllar.



**SINFDA O'QITUVCHI, O'QUVCHI VA MEHMONLARNING JOYLASHISH CHIZMASI**



### ***O'tilgan darsni takrorlash (8 daqiqa).***

O'tilgan darsni takrorlashda “Aqliy hujum”dan foydalanamiz. Bunda har bir guruhga bittadan mantiqiy savollar beriladi.

*Na'muna:*

1. ***Qoraqalpoq yozma adabiyoti qachon shakllandi va nega bu adabiyotning asosini she'r va dostonchilik tashkil etgan?***
2. ***Berdaq asarlarida qanday g'oyalar ilgari surilgan?***
3. ***Ajiniyozning qanday asarlarini bilib oldingiz va ularda qanday g'oyalar ilgari surilgan?***

Guruhlarning javoblari to'g'ri yoki noto'g'riligi tekshirilib, rag'batlantiriladi va o'tilgan darsni takrorlash maqsadida “Topqirlik” mashg'uloti o'tkaziladi. Bunda har bir guruhdan 2 nafar o'quvchilar tanlab olinib “Shatranj” taxtasidagi bir qancha yillar orasidan o'tilgan darsga oid bo'lgan yillardan 2 tasini tanlashi kerak bo'ladi. Ikkinchi o'quvchi esa tanlangan yillarda qanday voqealar bo'lganligini aytishi kerak bo'ladi.

*Na'muna:*

1730	1758	1999	1871
1578	1784	1878	1900
1907	1799	1500	1913
1825	1755	1620	1827

Guruhlarning javoblari to'g'ri yoki noto'g'riligi aniqlanib guruhlar rag'batlantiriladi va yangi mavzu bayoniga o'tiladi.

### ***Yangi mavzu bayoni (15 daqiqa)***

Farg'ona vodiysi Buxoro xonligi tasarrufida edi. XVIII asr boshlarida Buxoro xonligi ichki kurashlar oqibatida zaiflashadi. Bu vaziyatdan foydalangan jung'orlar Farg'ona vodiysiga tez-tez bostirib kirib, talon-taroj qila boshladilar. Bunday

vaziyatlar ichki kuchlarning birlashishini va mustaqil davlat tuzishga undamoqda edi. Dastlab Chust yaqinidagi Chodaq qishlog'i xo'jalari jamoasi o'z mulklarini mustaqil deb e'lon qildilar. Vodiydagi o'zbeklarning ming urug'i oqsoqollari yig'ilishib, o'z yo'lboshchisi Shohruxbiy boshchiligida Buxoro xonligidan mustaqil davlat tuzishga qaror qildilar. Tepaço'rg'on hukmdor Shohruxbiyning qarorgohiga aylantirildi. Shohruxbiyning o'g'li Abdurahimbiy (1721-1733) davrida Xo'jand, O'ratepa viloyatlari qo'shib olindi. U Shahrisabz ostonalariga qo'shin tortib borib, uning hokimi bilan Qo'qonga tobelik haqida bitim tizishga erishdi. Abdurahimbiy Xo'jandga qaytib kelib, qattib betob bo'ladi va vafot etadi. Taxtga uning inisi Abdukarimbiy (1733-1750) o'tiradi. U o'z poytaxtini Tepaço'rg'on dan Qo'qon shahriga ko'chiradi. Shahar mudofa devor bilan o'rab olinadi.

Erdonabiy hukmronligi davrida (1751-1762) xonlikning qudrati oshadi. U O'sh va O'zganni buysundiradi. Erdora davrida Qo'qon xonligi g'arbda Buxoro, sharqda Xitoy bilan tengma-teng kurash olib brogan.

Norbo'tabiy davrida ekinlardan mo'l hosil oinib, bozorlarda narx-navo arzonlashgan. Norbo'tabiy vafot etgach, taxtga uning o'g'li Olimbek o'tqazildi. Uning davrida (1798-1810) Qo'qonning siyoziy mavqeyi yanada kuchyadi. Olimxon davrida Rossiya bilan birinchi marta savdo aloqalari o'rnatilgan. Olimxon harbiy islohat ham o'tkazgan. Unga ko'ra "askariya" deb ataluvchi mumtazam qo'shin tuzilgan. Mumtazam qo'shin asosiy raqibi Buxoro amirligiga qarshi tura olishni ta'nimladi. Olimbek Buxoro amirligiga qarshi tura olishiga ishonch hosil qilgach, 1805 – yilda o'z davlatini rasman Qo'qon xonligi deb, o'zini esa xon deb e'lon qildi.

Qo'qon xonligi davlat tuzumiga ko'ra mutloq monarxiya edi. Davlat boshlig'i xon bo'lib, rasman cheklanmagan huquqqa ega bo'lgan.

Mulla Olim Muhammadxo'ja Toshkandiyning 1915 – yilda Toshkentda nashr etilgan "Tarixi Turkiston" asarida Qo'qon xonligidagi mansablarga ta'rif berilgan. Unda ta'kidlanishicha, xondan keyingi o'rinda mingboshi turgan. U bosh vazir va qo'shinning bosh qo'mondoni sanalgan. Qo'shbegi esa xonning maslahatchisi bo'lgan. Toshkent shahri ma'lum bir vaqtda qo'shbegi tomonidan boshqarilgan.



Xonlikda xon yotog'i, posbonboshi, tunqator, otaliq, dodxoh, bakovulboshi kabi mansablar ham joriy etilgan.

Ma'muriy – hududiy jihatdan xonlik viloyatlarga (15 ta), bekklik va oqsoqolliklarga bo'lingan.

### ***Yangi mavzuni mustahkamlash (15 daqiqa)***

Yangi mavzuni mustahkamlashda "Klaster" usulidan foydalanamiz. Bunda har bir guruh gul yaproqlari markaziga yozilgan savollarga 2 daqiqa vaqt davomida javoblar yozishlari kerak bo'ladi.

Na'muna:



Belgilangan vaqt o'z nihoyasiga yetgach guruh a'zolaridan bir nafar o'quvchi o'z javoblarini o'qib eshittiradi va qolgan guruhlar esa javolarning to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirishadi va shu tariqa guruhlar rag'batlantiriladi.

Yangi mavzu "Klaster" usulida mustahkamlangach, yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida "Mehrjon bayrami" mashg'uloti o'tkaziladi. Bunda har bir guruhdan darsda faol ishtirok etmagan o'quvchilardan 2 nafari tanlab olinib "Bilimlar daraxti"dagi savollarga javob berishadi va "Bilimlar daraxti" mevalariga ega bo'lishib, rag'batlantiriladi.

"Mehrjon bayrami" yakunlangach, yangi mavzuni mustahkamlash uchun "Sirli so'z" mashg'uloti o'tkaziladi. Bunda o'quvchilarga slayd o'rqali "Sirli so'z" yashiringan katakchalar havola etiladi va guruhlarning savollarga javob berishlari natijasida katakchalardagi yashiringan so'zlar paydo bo'ladi, hamda guruhlar rag'batlantiriladi.

Na'muna:

2015	-	YIL
KEKSALARNI		
E'ZOZLASH		
YILI		

"Sirli so'z" mashg'uloti yakunlangach darsning shiori haqida to'xtalib, Yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Yoshlar xalqimizning tayanchi" mavzusidagi video lavhalari videoprojektor orqali o'quvchilarga havola etiladi.

#### ***O'quvchilarni baholash (2 daqiqa)***

Guruhlarning rag'bat kartochkalari hisoblanib, g'olib guruh aniqlanadi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.

#### ***Uyga vazifa (2 daqiqa)***

1. Mavzuni batafsil o'rganish va qo'shimcha adabiyotlardan ma'lumotlar to'plab kelish
2. Mavzudagi yillardan XRONOKROSS tuzib kelish.